

НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ



РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:3

DINIY MATNLARNING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Xoziyeva Shahzoda

Lingvistika (o'zbek tili) 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyotlarda keltirilgan diniy matnlardan misollar topilib, ular leksik jihatdan tahlilga tortiladi hamda leksik – semantik xususiyatlariga ko'ra tasniflanadi.

Kalit so'zlar: Diniy matn, leksik – semantik guruh, sinonim, antonim, polisemiya, arxaizm, Qur'on, hadis.

Абстрактный: В данной статье найдены примеры религиозных текстов, представленных в художественной литературе, они лексически проанализированы и классифицированы по их лексико-семантическим признакам.

Ключевые слова: Религиозный текст, лексико-семантическая группа, синоним, антоним, многозначность, архаизм, Коран, хадис.

Abstract: In this article, examples of religious texts presented in fiction are found, they are lexically analyzed and classified according to their lexical-semantic features.

Key words: Religious text, lexical-semantic group, synonym, antonym, polysemy, archaism, Qur'an, hadith.

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsiionalekspressiv ifoda semalak qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgar so'zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi¹. Ushbu ishda badiiy adabiyotlarda keltirilgan diniy matnlardan misollar topib, diniy tushunchalarni anglatuvchi leksik birliklarni tahlilga tortamiz. Chunki badiiy asarlarda berilgan diniy matnlar asar ta'sirchanligini aks ettirish bilan birga asarga milliy ruh ham baxsh etib turadi. Masalan, Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasi Qur'oni karim surasi va Hadisi sharif bilan boshlanganligini ko'rishimiz mumkin.

"Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa, bas, ana o'shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar". (Baqara surasi, 217-oyat.)²

Yuqorida keltirilgan "Baqara" surasida diniy ma'noga ega bo'lgan *kofir, savob, do'zax, amal* kabi diniy ma'noga ega leksemalarni ko'ramiz. Quyida ularni leksik-semantik jihatdan tadqiq etamiz. Bunda esa, albatta, "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga tayanamiz.

¹ M.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, M.Saparniyazova. Matn Lingvistikasi, o'quv qo'llanma.–Toshkent, 2021.

² Said Ahmad. Qorako'z majnun. –Toshkent: "O'zbekiston", 2013. – B.88.



НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:3

Kofir arabcha so‘z bo‘lib, tanimovchi, inkor etuvchi, islom dinini tanimovchi, g‘ayridin³ degan ma’nolarni anglatadi. *Kofir* leksemasini leksik-semantik xususiyatiga ko‘ra diniy ijtimoiy nufuz, mansab, bajaradigan amallar bilan bog‘liq leksemalar⁴ guruhiga kiritishimiz mumkin. Keyingi o‘rinda *do‘zax* leksemasiga e’tibor qaratamiz. Bu so‘zni leksik-semantik guruhning g‘ayb dunyosini ifodalovchi so‘zlar⁵ guruhiga kirtsak, maqsadga muvofiq bo‘lardi. *Do‘zax*— jahannam. Diniy tasavvurga ko‘ra: o‘lgan, din talablarini bajarmagan gunohkor bandalar oxiratda abadiy azoblanadigan joy; jahannam⁶. *Do‘zax* leksemasi ko‘chma ma’noda ham qo‘llaniladi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda aylanayotgan bir gap bor: “Ayolingning farishtasifat bo‘lishini istasang, unga jannat yaratib ber. Chunki farishtalar jahannam(*do‘zax*)da yashamaydi.” Gapning ma’nosiga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, bunda jannat va jahannam so‘zleri ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Ya’ni sharoit, muhit va ayolga bo‘lgan muomala va hurmat haqida gap bormoqda. Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi gapda ayolini farishtadek bo‘lishini xohlagan erkak unga yaxshi sharoit qilib bera olishi hamda mehr va hurmat ko‘rsatishi lozimligi anglashilib turibdi.

Amal leksemasi ham bir qarashda bugungi kunda juda ko‘p qo‘llanadigan oddiy kundalik so‘zimizga aylanib qolgan bo‘lsa-da, aslida u ham diniy leksemalardan biri hisoblanadi. Unga o‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday ta’rif beriladi: Amal arabcha — ish, harakat degan ma’noni anglatadi. Ilm, nazariya, fikr va sh.k.ning hayotiy reallashuvi⁷. Bu kabi so‘zlarni Sh.Omonturdiyeva ommalashib, tilimizning o‘z so‘zlariga aylangan leksik birliklar⁸, deb tasniflaydi. E’tiborga molik jihat shundaki, *amal* leksemasining bir qancha ma’nolari bo‘lib, unig diniy istiloh sifatida ma’nosini quyidagicha izohlanadi: **Islom ilohiyotida din aqidalariga ishonishdan tashqari dindor o‘z faoliyati va harakati bilan bajarishi lozim bo‘lgan barcha vazifalar va savob ishlarni ifoda etuvchi tushuncha.** Amal umumiy mazmunda diniy marosimlar, urf-odatlar bilan bog‘liq vazifalarni o‘z ichiga oladi. Qur’onda „amal“ so‘zi juda ko‘p suralarda keladi, bunda musulmonlar tomonidan bajariladigan yaxshi, foydali ishlar ham, shayton tomonidan odamlarga qarshi qilinadigan yomon, zararli ishlar ham tushuniladi⁹. Bundan tashqari *amal* leksemasining yana mas’ul vazifa, iloj-chora, sehr-jodu, matematik amalning bir turi

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-tom.—T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

⁴ Sh. Omonturdiyeva. “Ozbek diniy matning funksiona-stilistik tadqiqi. Avtoreferat. – Samarqand, 2020.

⁵ Sh. Omonturdiyeva. “Ozbek diniy matning funksiona-stilistik tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2020.

⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-tom.—T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-tom.—T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

⁸ Sh. Omonturdiyeva. “Ozbek diniy matning funksiona-stilistik tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2020.

⁹ O‘z.ME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.



НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:3

kabi ko‘plab ko‘chma ma’nolari hamda *amal qilmoq* kabi birikmali ko‘rinishlari ham mavjud. *Amal* leksemasining yonida kontekstdan anglashilib turgan insonning kofir bo‘lishidan avval qilgan amallari ma’nosini aniqlashtirish maqsadida qavs ichida *savobli* (yaxshilik) leksemasi berib o‘tilgan.

“Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvondan biri bu Ashobi kahfning vafodor itidir”. (Al-jome al-Kabir.)

Hadisi Sharifdan olingen ushbu hadisda *jannat*, *Ashobi kahf* kabi diniy leksemalar berilgan. *Jannat* leksemasini semantik guruhnинг g‘ayb dunyosini ifodalovchi¹⁰ guruhiga kiritishimiz mumkin. *As’obi Kahf* esa ham antroponim, ham zoonim hisoblanadi. Bunda Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida berilgan ma’lumotlarga tayanamiz.

Jannat islam dinining asosiy tushunchalaridan hisoblanib, u yaxshi amalli insonlarning g‘ayb dunyosida yashash manzili deb tasavvur etiladi. Diniy ma’no bildiruvchi leksemalarning barchasi tilimizga arab tilidan kirib kelgan. Bu islam dinining avval arablarda vujudga kelgani bilan bog‘liqdir.

Keyingi o‘rinda Tohir Malikning “Odamiylik mulki” romanida keltirilgan diniy matnlarga murojaat qilamiz.

“Aniqki, biz jin va insdan ko‘plarini jahannam uchun yaratganmiz. Ularning dillari boru, anglay olmaydilar, ko‘zlarini boru, ko‘ra olmaydilar, quloqlari boru, eshitmaydilar. Ular chorva kabidurlar, yo‘q, ular (beaql va befahmlikda) chorvalardan ham badtardirlar. Ana o‘shalar g‘aflatda qolgan kimsalardir.” (A’rof surasidan).

Endi berilgan suradagi leksemalarni leksik-semantik guruhlarga bo‘lib chiqamiz.

- G‘ayb mavjudotlarini bildiruvchi so‘zlar: *jin* va *ins*;
- G‘ayb dunyosini bildiruvchi so‘z¹¹: *jahannam*.

Parchada keltirilgan “ko‘zlarini boru” birikmasini oladigan bo‘lsak, u konteksda o‘z ma’nosida kelgan. Ammo uni konteksdan tashqarida frazeologik birlik sifatida ham e’tirof etishimiz mumkin. Chunki u frazeologik birlik sifatida “kimgadir qarasa, kinnasi kiradigan inson” semasini ham bildiradi. “Dillari boru, anglay olmaydilar, ko‘zlarini boru, ko‘ra olmaydilar, quloqlari boru, eshitmaydilar” jumlasini tahlilga tortsak, ushbu jumlada shakliy jihatdan bo‘lmasa-da, ma’noviy jihatdan antonimiya hodisasini kuzatishimiz mumkin. Bunda dili bor, ammo anglay olmasligi, ko‘zi bor, ammo ko‘ra olmasligi, qulog‘i bor-u, biroq eshitolmasligi bir-birini mantiqan inkor etuvchi jumla bo‘lganligi sabab ularni antonim sifatida olishga qaror qildik.

¹⁰ Sh. Omonturdiyeva. “Ozbek diniy matnining funksiona-stilistik tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2020.

¹¹ Sh. Omonturdiyeva. “Ozbek diniy matnining funksiona-stilistik tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2020.



НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:3

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam): “Ogoh bo‘ling! Tanangizda bir parcha go‘sht bor. Agar u sog‘ bo‘lsa, butun jasad sog‘dir. Agar u buzilsa, butun jasad buziladi. Ogoh bo‘ling, u - qalbdir!”.

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) leksemasini Alloh, din, mazhab kabi tushunchalar bilan bog‘liq leksemalar¹² semantik guruhiga kiritamiz. Yuqoridagi hadisda berilgan *tana* va *jasad* so‘zлari o‘zaro sinonimik qatorni hosil qiladi. Ammo boshqa tomondan qaraydigan bo‘lsak, “butun jasad sog‘dir” birikmasida faqatgina tanaga emas, balki inson va uning ruhiyatiga ham ishora qilinayotgani seziladi. Chunki keyingi qatorda berilgan “Agar u buzilsa, butun jasad buziladi. Ogoh bo‘ling, u - qalbdir!” gapi orqali jasad deyilganda faqat insonning tanasiga emas, insonning vijdoniga va iymon-e’tiqodiga ham putur yetishi nazarda tutiladi. Ushbu jumlada metonimiya hodisasi ham kuzatiladi.

“Iymon keltirgan zotlar uchun dillari Allohnинг zikriga va nozil bo‘lgan haqqqa (ya’ni Qur’onga) moyil bo‘lish vaqt kelmadimi?! Yana ular uchun ilgari kitob ato etilgan, so‘ng payg‘ambarlaridan keyingi muddat uzaygach, dillari qotib ketgan kimsalar (ya’ni yahudiy va nasroniyalar) kabi bo‘lib qolmaslik vaqt kelmadimi? Ulardan ko‘plari fosiqdirlar (ya’ni itoatsizdirlar)”. (Hadid surasidan.)

Keltirilgan parchadagi diniy leksemalarni semantik guruhlarga bo‘lamiz.

- Alloh, din, mazhab kabi tushunchalar bilan bog‘liq so‘zlar: Alloh, payg‘ambar, iymon keltirmoq;
- diniy ijtimoiy nufuz, bajaradigan amallar bilan bog‘liq so‘zlar: yahudiy, nasroniy, fosiq;
- diniy kitoblar, qog‘ozlar bilan bog‘liq so‘zlar¹³: Qur’on.

Berilgan parchada noodatiy holga ko‘zimiz tushadi. Musulmon xalqi azal-azaldan “Haq” deyilganda, Alloh Taoloni tushunib keladi. Yuqorida berilgan parchada esa “haq” deb islom dinining muqaddas kitobi hisoblangan Qur’on nazarda tutilganiga guvoh bo‘lamiz. Zot, zikr, nozil bo‘lmoq kabi so‘zlar anchagina ommalashib qolganiga qaramay, ularni ko‘pincha diniy matnlarda uchratamiz. Yahudiy, nasroniy, fosiq leksemalari esa islom diniga e’tiqod qilmaguvchilarni anglatadi. Zot va kimsa so‘zлari o‘zaro sinonimik qatoreda tursa-da, ular bir-biridan emotsional-ekspresivlik bo‘yoq dorlik jihatdan farq qiladi. E’tibor qiladigan bo‘lsak, zot leksemasi ijobjiy bo‘yoq dorlikka ega bo‘lsa, kimsa leksemasi esa ko‘p o‘rinlarda salbiy ma’noda

¹² Sh. Omonturdiyeva. “Ozbek diniy matnining funksiona-stistik tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2020.

¹³ Sh. Omonturdiyeva. “Ozbek diniy matnining funksiona-stistik tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2020.



НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:3

ishlatiladi. Qarang: Allohga iymon keltiruvchi insonlarga nisbatan *zot* tushunchasi qo‘llansa, islom diniga itoatsiz fosiqlarga nisbatan *kimsa* tushunchasi qo‘llangan. Buni yana bir misolda ham ko‘rishimiz mumkin:

Alloh taborak va taolo marhamat qiladi: “Albatta iymon keltirgan va yolg‘iz Parvardigorlariga tavakkul qilgan zotlar ustida (shayton) uchun hech qanday sultanat - hukmronlik yo‘qdir. Uning (shaytonning) hukmronligi faqat (uni) do‘st tutib, (Allohga) sherik qilib oladigan kimsalar ustidadir”.

Yoki:

“Aniqki, biz jin va insdan ko‘plarini jahannam uchun yaratganimiz. Ularning dillari boru, anglay olmaydilar, ko‘zları boru, ko‘ra olmaydilar, quloqlari boru, eshitmaydilar. Ular chorva kabiturlar, yo‘q, ular (beaql va befahmlikda) chorvalardan ham badtardirlar. Ana o‘shalar g‘aflatda qolgan kimsalardir.” (A’rof surasidan). Bu misolda ham g‘aflatda qolgan (salbiy) insonlarga kimsa deb ta’rif berilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, diniy matnlarda o‘ziga xos leksik xususiyatlar, asosan, diniy leksemalarning semantik jihatlarida, so‘z qo‘llashning, xususan, ekspressiv – emotsiyal so‘zlarning uslubiy qo‘llanilishida hamda diniy uslubning boshqa stillardan farqlovchi alohida leksik birliklarida ko‘rinadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. M.Yo‘ldoshev, S.Muhamedova, M.Saparniyazova. Matn Lingvistikasi,o‘quv qo‘llanma.–Toshkent, 2021.
2. Sh. Omonturdiyeva. “Ozbek diniy matnining funksiona-stilistik tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2020.
3. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: 1985,121-bet.
4. Djalilova A., Xamidov A., Abduqodirov M. Kanalizatsiya va oqova suvlarni tozalash. Toshkent: 2012, 6-bet.
5. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977, 45-bet.
6. Narxodjayeva X. Jarayon anglatuvchi terminlarning o‘zbek tilida tutgan o‘rni. – Toshkent:Fan, 2013, 24-bet.
7. Qosimov N. O‘zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasi masalalari (So‘z o‘zlashtirish va affiksatsiya masalalari). – Toshkent: Fan, 1985, 47-bet.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 4-jild. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2008, 220-bet.



НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:3

9. Yuldasheva N.E. On methods of research of uzbek language syntax// Vidyabharati International Interdisciplinary Research Journal (Special Issue). ISSN 2319-4979. 2021. № 26. - P. 3913-3918.
10. Yuldasheva, N., & Ergasheva, R. (2020). Research Of Terminology And Aviation Terminology. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN–2689-100x) Published: August, 25, 312-317.
11. ЮЛДОШЕВА, Н. (2022). Содда гап қолиплари воқеланишига таъсир қилувчи акцентуатив омиллар. О „ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 1(3).
12. Юлдошева, Н. Э., & Мавланова, Н. Т. (2023). СОДДА ГАП ҚОЛИПЛАРИ ВОҚЕЛАНИШИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ПРОСОДИК ВОСИТАЛАР. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMUY JURNALI, 3(2), 556-564.
13. Davlatova, M. H. (2021). Semantic implementation of resultutive structures. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6, 291-294.
14. Shirinova, N. D., & Davlatova, M. K. MORPHOLOGICAL WAY OF DIFFERENTIATION OF SUBSTANCE AND ATTRIBUTIVE MEANINGS IN THE LANGUAGE SYSTEM. ILMUY XABARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура,(1), 86-89.
15. Davlatova, M. (2023). Semantic properties of effective constructions in English and Uzbek languages. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 10027). EDP Sciences.
16. Hasanovna, D. M. (2023). ON THE TYPES OF RESULTS STRUCTURES EXPRESSED BY A SECONDARY PREDICAT. International Journal Of Literature And Languages, 3(03), 52-58.
17. Hasanovna, D. M. (2022). ASPECTUAL AND LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERB NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581-4230. ISSUE, 2, 25.